



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 27-aprel, № 82 (8705)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



BOYSUN SAYYOHLARNI NIMASI BILAN O'ZIGA JALB QILMOQDA?

So'nggi yillarda yangi O'zbekiston dunyoga tamomila yangi qiyofada bo'lgan ko'rsatmoqda. Bunda respublikada turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan muhim omil bo'lyapti, desak, mubolag'a emas. Davlatimiz rahbari tomonidan sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar belgilandi va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda.

Turizm imkoniyatlari

O'tgan vaqt mobaynida turizm industriyasi subyektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar shakllantirildi. Turizmni rivojlantirishda to'g'ri va g'ovlarga barham berilib viza va ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillari, pasport va bojxona nazorati soddalashtirildi. Turizm xizmatlarini yo'lga qo'yishda turistlar va ekskursantlarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.



Turizmning yangi salohiyatli turlari — ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbiarmonlik, yoshlar va oilaviy turizm jadal rivojlantirildi.

SUV RESURSLARI VA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR

Bugun global iqlim o'zgarishlari dunyo miqyosida qanday salbiy oqibatlarni keltirib chiqarayotganini barchamiz ko'rib-bilib turibmiz. Xususan, ko'plab mintaqalarda suv tanqisligi kuzatilmoqda, shu jumladan, bizda ham. Shu bois keyingi yillarda mamlakatimizda suv resurslaridan unumli foydalanish borasida keng ko'lami ishlar olib borilyapti. Avvalo, mavjud kanal va ariqlarni betonlashtirish evaziga suvni tejash choralarini ko'rilayotganini alohida ta'kidlash zarur.

Innovatsiya

Respublikamizning barcha hududida yaxshi bir tajriba yo'lga qo'yildi. Ya'ni bugun nafaqat har bir ariq, balki uning har bir qarichining o'z egasi bor.

Shu kabi sa'y-harakatlarda davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan suv xo'jaligida tejamkor texnologiyalarni joriy etish va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishga doir dolzarb vazifalar dasturlamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Tizimdagi muammolarni bartaraf etish maqsadida so'nggi besh yilda yurtimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va tubdan isloh qilishga yo'naltirilgan bir nechta me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ayni chog'da yerdan unumli foydalanish, hosildorlikni oshirish,

daromadni ko'paytirish, iste'molchilar uchun sifatli va raqobatdosh mahsulotlar tayyorlashga bo'lgan e'tibor ham ortdi.

Ammo suv resursi cheklanganligi sababli aholi boshiga to'g'ri keladigan suv miqdori tobora kamayishda davom etayotgani tashvishlidir. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, yillar o'tishi bilan suvga bo'lgan ehtiyoj yanada ortadi. Shu sababli suvning qadriga yetib, undan oqilona foydalanish, sohaga innovatsion texnologiyalarni yanada ko'proq jalb qilish ayni zarurat, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Zero, faqat shu yo'l bilaningina mazkur muammoni hal etish mumkin.

Ayni maqsadda tomchilatib sug'orish texnologiyasi qishloq xo'jaligiga keng

tatbiq etilmoqda. Bu tizim o'simlikning suvga bo'lgan ehtiyojiga teng miqdordagi suvni zarur muddatda uning ildiz qatlamiga yetkazib berishga mo'ljallangan bosimli sug'orish tarmog'i hisoblanadi.

Olimlarning ma'lumotiga ko'ra bir sentner paxta hosili olish uchun tomchilatib sug'orish tizimida egat orqali sug'orishga nisbatan 1,8-1,9-marta kam suv beriladi. Tomchilatib sug'orish hisobiga ekin ildiz tizimi normal shakllanadi va dalani bir tekisda namlashga erishiladi. Shu orqali qator oralariga ishlov berish uchun sarflanadigan xarajat kamayadi.

Bu bilan, avvalo, tuproqda o'simlik uchun zarur bo'lgan maqbul namlikni ushlab turishga erishiladi, suvning quyosh yoki shamol ta'sirida bug'lanishining oldi olinadi va suv o'simlik ildiz tizimini namlantirish orqali tuproqdagi namlikning maqbul darajasi saqlanadi. Qolaversa, ayni usul yordamida o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi va hosil berishi uchun maqbul sharoit yaratiladi hamda ekin turiga qarab 80 foizgacha suv tejab qolinadi.

YANGILIKLAR xabarlar TAFSILOTLAR



Parij Olimpiadasiga bir qadam qoldi

Qatarda davom etayotgan yigirma uch yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasida Osiyo kubogining chorak finalida O'zbekiston olimpiya terma jamoasi Saudiya Arabistoni vakillarini mag'lub etib, musobaqa yarim finaliga chiqdi.

Dohadagi "Xalifa" stadionida kechgan bahsda Temur Kapadze shogirdlari raqibdan har tomonlama ustunlik qildi. Bu o'yin yakunida qayd etilgan hisobda ham o'z ifodasini topdi — O'zbekiston — Saudiya Arabistoni 2:0. Uchrashuvning 47-daqiqasida Husayn Norchayev hisobni ochdi. Xaziradan maydonga tushgan Umarali Rahmonaliyev 85-daqiqada hisobdagi farqni ikkitaga oshirdi. Shu tariqa vakillarimiz Parij sari yana bir qadam tashladi. Olimpiadaga to'g'ridan-to'g'ri yo'llanmani qo'lga kiritish uchun futbolchilarimiz 29-aprel kuni Indoneziyani mag'lubiyatga uchratishi kerak bo'ladi.

Futzalchilarimiz 3-o'rin uchun bellashadi

Futzal bo'yicha Tailandda davom etayotgan Osiyo kubogining yarimfinal bellashuvlari bo'lib o'tdi.



Ushbu bosqichda O'zbekiston terma jamoasi Eron terma jamoasiga qarshi bellashdi. Uchrashuvning asosiy vaqti va qo'shimcha bo'limgi 3:3 hisobi

bilan yakunlandi. Penaltilar seriyasida esa omad eronliklarga kulib boqdi — 4:5. Endi ham yurtlarimiz uchinchi o'rin uchun uchrashuvda tojikistonlik futbolchilar bilan kuch sinashadi. Yana bir yarimfinalda Tailand Tojikistonni 4:3 hisobida mag'lubiyatga uchratdi.

Fazliddin ABILOV ("Xalq so'zi").

O'ziga xos tajriba maktabi

Andijon viloyatida tomorqadan foydalanishning o'ziga xos tajriba maktabi yaratilgan. Misol uchun, Jalaquduq tumanidagi Beshkaram mahallasida yashovchi Bahodirjon Ergashev oilasini olaylik. 33 million so'mlik kredit mablag'i tufayli xonadonda issiqxona barpo etildi-yu, qo'shimcha daromad miqdori keskin ortdi.

— Tomorqamizda 10 sotixli issiqxona barpo etdik, — deydi omilkor dehqon. — Uning 8 sotixida pomidor, 2 sotixida bodring parvarishlaymiz. Birinchi mavsumda 60 million so'm daromad olishni ko'zlaganmiz. Bir yilda 3-4-marta



hosil olish mumkinligi inobatga olinsa, kamida 100 million so'm qo'shimcha daromad olishga erishamiz. Ushbu mahallada bunday tadbirkor oilalar ko'p. Bahodirjon Siddiqov oilasi ham shular sirasiga kiradi. — Hozirgi kunda xonadonimizda 20 ta asalari uyasi mavjud, — deydi oila boshlig'i. — Ulardan yiliga

50 million so'mdan ko'proq daromad olamiz. Qolaversa, 5 sotixli tomorqamizda gilos yetishtiramiz, chorvachilik bilan shug'ullanamiz. Xullas, yil davomida daromadimiz 100 million so'mdan oshadi. Bugun Beshkaramda ihsiz fuqaroni topolmaysiz. Bunga o'zini o'zi band etish orqali erishilmoqda.

Saminjon HUSANOV ("Xalq so'zi").

Senator va hayot

"MAHALLA YETTILIGI" FAOLIYATI QONIQRALIMI?

Ma'lumki, jamiyatimiz taraqqiyotida barcha urf-odat, qadriyat va an'analarimizni o'zida mujassam etgan mahallaning o'ri beqiyosdir. Zero, mahalla obod ekan, yurtimiz ham farovonlashib boraveradi.

Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda amalga oshirib kelinayotgan islohotlar doirasida mahallani har jihatdan rivojlantirish choralarini ko'rilmog'da. Xususan, davlat rahbari tashabbusi bilan hududlarda "mahalla yettilligi" tashkil etilib, ularning vazifalari aniq belgilab berildi.

Ayni paytda "mahalla yettilligi" va mahalliy Kengash deputatlarining o'zaro hamkorligi aholi bandligini ta'minlash va ularni kambag'allikdan butkul chiqarish hamda fuqarolarning muammoni masalalarini tezkorlik bilan hal qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu boradagi ishlar bilan tanishish va "mahalla yettilligi" faoliyatiga ko'mak berish maqsadida Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari

qo'mitasi a'zosi Gulnora Ma'rufova boshchiligidagi ishchi guruh Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanida bo'ldi.

Ishchi guruh tomonidan mahallalardagi korxonalar va xonadonlar birma-bir ko'zdan kechirilib, yaratilgan ish o'rinlari va xotin-qizlar bandligini ta'minlash yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar holati o'rganildi.

Hududdagi mahalliy Kengash deputatlari va "mahalla yettilligi"ning hamkorligi qay darajada yo'lga qo'yilgani yuzasidan hokimlik vakillari va deputatlar bilan suhbatlar o'tkazildi.

O'rganish davomida "Mahalla yettilligi" — Kengash — Senat uch bo'g'inli hamkorlik tizimi mohiyati bo'yicha tushuncha berildi.

"Xalq so'zi".

TA'LIM-TARBIYADA MAS'ULLIK VA DAXLDORLIK

Sifatli ta'lim — inson kapitalini rivojlantirishning hal qiluvchi omili sanaladi. Shu bois mamlakatimizda ushbu tizimni isloh qilish eng ustuvor masalaga aylangan. Zero, zamonaviy xalqaro standartlarga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, sohani yanada takomillashtirish, yangidan isloh qilish va modernizatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish, eng ilg'or smart texnologiyalar, innovatsiyalarni ta'lim-tarbiya jarayonlariga tatbiq etishni davrning o'zi taqozo qilayapti. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, aytish mumkinki, yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi.

Fikr

Mazkur islohotlarni bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarish maqsadida, avvalo, qonunchilik bazasi yangilandi. 2023-yilning 30-aprel kuni umumxalq referendumida yakdillik bilan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bosh qomusimizning 51-moddasiga muvofiq oliy ta'lim tashkilotlarining

akademik erkinligi, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligiga erishish bo'yicha huquqlari amalga oshirilishini ta'minlash belgilandi.

Oxirgi yillar sarhisobiga nazar tashlaydigan bo'lsak, oliy ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan vazifalar doirasida salmoqli o'zgarishlar uddalandi. Jumladan, oliy ta'limga qamrov darajasi

41,5 foizga yetkazildi. Davlat oliygohlari bosqichma-bosqich mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov shartnoma miqdori va ta'lim shaklini mustaqil belgilash tizimiga o'tdi. Ularning moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida ijtimoiy soliq stavkasi amaldagi 25 foizdan 12 foizga tushirildi, bo'shagan mablag'lar ta'lim muassasalarini rivojlantirishga yo'naltirildi. Ahamiyatli, xususiy oliygohlarda ta'lim olayotgan talabalarga ham 7 yillik ta'lim kreditini olish tartibi joriy etildi.

Talabalarning yashash sharoitini yaxshilash masalasi ham muhimligiga ko'ra, ijobiy yechim topmoqda. Chunonchi, kelgusi besh yilda qariyb 100 ming o'rinni talabalar yotoqxonalarini barpo etilishi ko'zda tutilgan.

Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak,

2023-yilda 39 ta yangi OTM tashkil etilgan bo'lib, ularning 9 tasi davlat, 29 tasi nodavlat, 1 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasalaridir. Ayni chog'da sohada sifat va raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida 2026-yilgacha xususiy oliygohlar soni kamida 50 taga yetkazilishi e'tiborga molik.

Aytish mumkinki, oliy ta'lim tizimining vazifasi faqat talabalarga dars berishdan iborat emas. To'g'ri, universitet va institutlarimiz ilm-fan sohasida ham faol ishlashi, yoshlarni ilmiy ishlarga, katta-katta loyihalarga jalb etishi kerakligi ko'zda tutilgan. Biroq ta'lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo'lgan yangi avlodni, ilm-fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iborat.

MAKTABLAR SONI SO'NGGI 5 YILDA 660 TAGA KO'PAYGAN

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra 2023/2024 o'quv yilida faoliyat yuritayotgan umumta'lim muassasalari soni 10 750 tani tashkil etgan.

Mazkur bilim maskanlari so'nggi 5 yilda 660 taga oshgan.

Yillar kesimida qaraydigan bo'lsak:

— 2018/2019 o'quv yilida	9774 ta;
— 2019/2020 o'quv yilida	10090 ta;
— 2020/2021 o'quv yilida	10181 ta;
— 2021/2022 o'quv yilida	10289 ta;
— 2022/2023 o'quv yilida	10522 ta;
— 2023/2024 o'quv yilida	10750 taga

yetganini ko'rish mumkin.

Fakt va raqamlar

Umumta'lim muassasalari soni 1991/1992 o'quv yilidagiga nisbatan 2193 taga ortgan.



Senat qo'mitasida

YOSHLARNI VATANPARVARLIK
RUHIDA TARBIVIALASH —
USTUVOR VAZIFA

Yoshlar parlamenti a'zolari ishtirok etdi.

Kecha bo'lib o'tgan Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi majlisida senatorlar, tegishli vazirlik va idoralarda vakillari, olimlar, yosh tadqiqotchilar, ekspertlar hamda

Majlisda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirliklari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi mas'ullarining yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ustuvor vazifalar ijrosiga doir axborotlari eshitildi.

Ta'kidlanganidek, bugungi tahlikali davrda yoshlarni vatanparvar qilib tarbiyalash har qachongidan muhim hisoblanadi. Ya'ni vatanparvarlik tuyg'usini jamiyatga ta'sirchan usullar bilan singdirishning yangi uslublari, mexanizm va modellarini ishlab chiqishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Shu bois Hukumat tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirishga qaratilgan konsepsiya tasdiqlangan bo'lib, mutasaddi vazirlik va idoralarda bu borada muayyan sa'y-harakatlar olib bormoqda. Masalan, oliy ta'lim muassasalarida yoshlarni vatanparvar qilib tarbiyalash ishlari 4 yo'nalishda tizimli yo'lga qo'yilgan.

Yosh avlodning vatanparvarlik tuyg'ularini oshirish va dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan 2,5 mingta elektron kitob, 40 ta ertak matni, 58 ta ibratli ijtimoiy videorolik, 18 ta qisqa metrajli rolik va animatsiya, 50 ta audiohikoya va maqola, 40 dan ziyod dolzarb masalalar mavjudligiga ham e'tibor qaratildi.

Xususan, yoshlarni vatanparvar qilib tarbiyalashda yangi va

zamonaviy uslub va ta'sirchan vositalardan foydalanish, bunda raqamli davrni inobatga olish juda muhim. Qolaversa, Ma'naviy taraqqiyot strategiyasini qabul qilish, Uzluksiz vatanparvarlik konsepsiyasini ishlab chiqish, "Vatan tayanchi" harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini keng qo'llab-quvvatlash zarurati ham mavjud.

Senatorlar vatanparvarlik tarbiyasida ilmiy yondashuvga ham alohida e'tibor qaratish lozimligini bildirdi. Bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, oliygo'harlarining ijtimoiy fanlar dasturlarini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, "Axborot va murabbiylik soatlari" hamda "Ma'naviyat soatlari"ni yangi uslublar asosida samarali tashkil etish, Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani dasturini tubdan yangilash ana shular jumlasidandir.

Eshituv davomida yana bir muhim jihatga e'tibor qaratildi. Ya'ni milliy qahramonlarni targ'ib etuvchi bolalar uchun o'yinchoqlar ishlab chiqarilmayotgani tanqid qilindi. Mahalliy tadbirkorlarning bu boradagi tashabbus va loyihalarni qo'llab-quvvatlash lozimligi urgulandi.

Shuningdek, yig'ilishda "Milliy o'zlik" rukni ostida yoshlarda milliy g'ururni uyg'otishga qaratilgan kontent, videorolik, qo'shiq, film va badiiy asarlar yaratish, navqiron avlodga bog'chadan boshlab Vatanga va davlat ramzlariga muhabbat uyg'otish, olib borilayotgan islohotlarni sodda qilib tushuntirish, bolalar dramaturgiyasini rivojlantirish yuzasidan takliflar ilgari surildi.

Majlis yakunida ko'rilgan masala bo'yicha Senat qo'mitasining tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

SUV RESURSLARI VA
TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR

Ushbu usulda sug'orilgan dalada qatqaloq paydo bo'lmaydi va o'simlikning havo almashinuvi yaxshilanadi, kultivatsiya qilishga ehtiyoj qolmaydi. Bundan tashqari, mineral o'g'it suyuq holatda berilishi hisobiga o'g'it 50 foizgacha iqtisod qilinadi. O'simlik ozuqa moddalar bilan yaxshi to'yinadi. Ekin maydoni tomchilatib sug'orilsa, dala emas, yetishtirilayotgan ekinlar suv ichishini soha mutaxassislari yaxshi bilishadi.

Qolaversa, tomchilatib sug'orilganda suv o'simlikning faqat ildiziga boradi va natijada o'simlik o'sishini boshqarish mumkin bo'ladi. Muhimi, bunday holatda ekinlar hosildorligini oshirish

ko'rsatkichini 15—30 foizga yetkazsa bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, ekinlarni yangi texnologiya, xususan, tomchilatib sug'orish orqali kutilgan natijalarga erishish mumkin. Ya'ni mo'l hosil olinadi hamda borgan sari qadri oshib borayotgan suv resurslari tejaladi.

Umuman, ilg'or texnologiyalar, jumladan, tomchilatib sug'orishning afzalliklari ko'p. Bu usulni keng qo'llash orqali mavjud muammolarni hal etsa bo'ladi.



Ammo bu aytishgagina oson. Shu ma'noda, ushbu vazifalar biz, xalq vakillari zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklashini yaxshi tushunamiz.

Shavkat JALOLOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

TA'LIM-TARBIVADA
MAS'ULLIK VA DAXLDORLIK

Siraiddin VOHIDOV olg'on surat.

Shu bois Prezidentimizning 2023-yil 3-iyuldagi tegishli qaroriga ko'ra ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi bekor qilinib, kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimi joriy etilishi belgilandi. Bunda kompleks davlat akkreditatsiyasi har 4 yilda ta'lim tashkilotlarini tashqi baholash natijalari asosida o'tkaziladi va o'tmagan ta'lim tashkilotiga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun 6 oygacha muddat beriladi. Berilgan vaqtda kamchiliklarni tugatmagan ta'lim tashkiloti faoliyatini to'xtatish yoki ta'lim dasturini yopish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Litsenziyasi bekor qilingan

ta'lim tashkiloti yoki yopilgan ta'lim dasturida tahsil olayotgan talabalarga o'qishini davlat yoyinki nodavlat ta'lim tashkilotlarining mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari hamda mutaxassisliklariga belgilangan tartibda ko'chirish huquqi beriladi.

Bundan tashqari, yoshlarni ishga qabul qilish tizimi tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda. Unga ko'ra har bir vazir tarmog'ida kasblarga malaka talabini o'zi belgilashi, bunda 70 foiz kasblarga o'rta maxsus, 30 foiziga oliy ma'lumot talab etiladigan tizim bo'lishi belgilangan. Shuningdek, vazirliklar oliygoh, kollej va texnikumlarga buyurtma berish bilan birga, ularning o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qatnashadi.

Guilhana XUDOYOROVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati.

DEPUTATLAR — HUDUDLARDA

OCHIQ MULOQOTLARDA
MUHIM YONDASHUV VA NATIJADORLIK

Shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari o'z saylov okruglarida bo'lib, fuqarolar bilan ochiq muloqotlar o'tkazmoqda. Aholi turmush sharoitlari o'rganilib, ularni o'ylantirayotgan masalalarni hal etish choralari ko'riyapti. Ahmadiyah, uchrashuvlar chog'ida mamlakatimizda inson qadriini ulug'lash, huquq va erkinliklarini kafolatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim sohasidagi o'zgarishlar, qonunchilikdagi yangiliklar, qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyati keng tushuntirilmoqda.

Qonunchilikdagi yangiliklar aholiga yetkazilmoqda

Parlament quyi palatasi Spikeri o'rinbosari Zuhra Ibragimova hamda deputat Maqsud Qurbonboyevning Xorazm viloyati, Gurlan tumani aholisi bilan uchrashuvlari qizg'in hamda samarali kechmoqda.

Xususan, Gurlan tumani hokimligida "mahalla yettilligi" vakillari bilan o'tgan uchrashuvda quyi palata tomonidan yaqinda qabul qilingan yer uchastkalariga bo'lgan ijara va mulk huquqini e'tirof etishga qaratilgan qonunning mazmun-mohiyati tushuntirildi.

Ishirokchilar tomonidan ayrim masalalar bo'yicha bir qator savollar o'rtaga tashlandi. Deputatlar barcha savollarga atroflicha javob qaytardi.

Keyingi manzil tumandagi 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi bo'ldi. Bu yerda deputatlar o'quvchilarning sifatli ta'lim olishi uchun yaratilgan

shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishib, ularga so'nggi yillarda sohada olib borilayotgan keng qamrovli ishlar haqida batafsil ma'lumot berishdi.

Mahallaning jamiyatdagi o'rni

Qonunchilik palatasi deputati Erkin Zohidovning Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumandagi "Oqibat", "Nur" mahalla fuqarolar yig'inlari aholisi bilan uchrashuvi ham ilk kundanoq samarali kechdi. Keyingi yetti yilda tizimni takomillashtirishga doir yuzga yaqin me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektordan iborat ta'sirchan tuzilma faoliyati yo'lga qo'yilgani ijtiboiy samara berayotgani qayd etildi.

Mahallalar obodligini ta'minlashda "Yashil makon"

umummilliy loyihasining o'rni alohida ekani, bu boradagi ishlar tufayli hududlarda bog'lar, yashil hududlar kengayib borayotgani ta'kidlandi.

Muloqot chog'ida so'z olganlar mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni hamda rolini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar natijasini bugun xalqimiz o'z kundalik hayotida his qilayotganini qayd etdilar.

Deputat, shuningdek, tumandagi "Katta Oltintepa", "Oltintepa" va "Alpomish" MFYda ham bo'lib, faollar bilan muloqot o'tkazdi.

O'qituvchilar islohotlar samarasidan mamnun

Quyi palata deputati Nazir Sobirovning Buxoro viloyatida aholi bilan uchrashuvlari Jondor tumanidan boshlandi.

Tumandagi 32-umumiy o'rta ta'lim maktabida mahalla faollari, o'qituvchilar bilan o'tgan muloqotda ta'lim sohasini rivojlantirish, yoshlarning sifatli ta'lim olishi uchun yaratilayotgan sharoitlar haqida so'z yuritildi.

Xalq vakili ushbu maktabda o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, uning moddiy-texnika bazasini yaxshilashga qaratilgan ishlar bilan yaqindan tanishdi. O'quvchilar bilan suhbatlashib, ularning orzulari bilan qiziqdi.

Bunday uchrashuvlar 36-umumiy o'rta ta'lim maktabida davom

etdi. Deputat bu yerda Ibn Sino, Luqmon mahallalarida yashovchi fuqarolar bilan uchrashib, ularni o'ylantirayotgan masalalarni o'rgandi.

Muloqot chog'ida fuqarolardan kelib tushgan murojaatlar mutasaddi idora vakillari ishtirokida joyida hal etildi. Yechimi vaqt talab qiladigan masalalar esa nazoratga o'ldi.

Keyingi manzil Jondor tumandagi "Kirlishon" MFYda joylashgan 20-umumta'lim maktabi bo'ldi.

Uchrashuvda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli yurtimizda juda katta o'zgarishlar yuz bergani, o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqei butunlay o'zgarib, pedagoglar maoshi bir necha marta oshganligi mamnuniyat bilan qayd etildi.

Har mavsumda 15 million so'm qo'shimcha daromad

Quyi palata deputati Viktor Pakning saylovchilar bilan uchrashuvlari ham ko'tarinki ruhdan o'tmoqda. Xususan, deputat O'rta Chirchiq tumandagi "Turkiston" MFYda bo'lib, "mahalla yettilligi" faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Ma'lum bo'lishicha, 2023-yilda mahalla aholisining 60 nafari "ayollar haftasi"da turgan. "Mahalla

yettiligi" vakillarining sa'y-harakati bilan bugun ularning aksariyati bu

daftardan chiqarilgan. Mahalla hududida 12 ta oilaviy korxonada bo'lib undagi drayver sohalari mebelsozlik va parrandachilik hisoblanadi. Aholining katta qismi hududdagi xususiy korxonalarda ishlaydi, shu bois xorijda ishlovchi yoshlar soni juda kam. Eng muhimi, mahalladagi 348 ta xonadonning aksariyati tomorqadan unumli foydalanadi.

Nurafshon shahridagi "Dehqonobod" MFYda yashovchi Maqsuda Baratova o'z xonadonida 2 sotixli issiqxona barpo etib, yiliga uch marta daromad hissa olmoqda. Deputat ushbu xonadonda bo'lib har bir qarich yerdan unumli foydalanib mo'l hosil olayotgan oila tajribasi bilan qiziqdi. Suhbat chog'ida u yurtimizda tomorqachilik rivojlantirilayotgani sharofati bilan har mavsumda 15 million so'm qo'shimcha daromad topayotganini bildirdi.

Muloqot jarayonida mahallada ushbu xonadon tajribasini ommalashtirish, shu yo'l bilan tomorqachilikdan moddiy manfaatdorlikni yanada oshirish lozimligi aytiladi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining hududlardagi uchrashuvlari davom etmoqda.

"Xalq so'zi".

FRAKSIYALAR
HAYOTI

O'zLiDeP

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda davlat tashkilotlari tomonidan budget mablag'larini sarflanishida ortiqcha xarajatlar qilinayotganiga oid xabarlar tarqalgan edi. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Nodir Abdulvaliyev bunga o'z munosabatini bildirib budgetdan mablag' oluvchi vazirlik, idora va tashkilotlarni budget mablag'larini sarflashda tejamkorlikka amal qilishga, ortiqcha hashamat va sarf-xarajatlarga yo'l qo'ymaslikka chaqirdi.

"Gap budget mablag'laridan belgilangan tartib asosida foydalanish haqida ketar ekan, bu mablag' xalqni ekanini yoddan chiqarmaslik kerak. Budget mablag'ini bunday holatda sarflashga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi", dedi deputat.



"Milliy tiklanish" DP

Qonunchilik palatasining shu haftada bo'lib o'tgan yalpi majlisida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashni yanada kuchaytirishga oid qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi. Ushbu qonun loyihasi bilan joriy etilayotgan yangiliklardan biri individual harakatlanish vositalarini boshqarayotgan shaxslarning yo'l harakati qoidalarini buzganligi uchun javobgarlik belgilanayotgani bilan bog'liq.

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi A'zamjon To'laboyev qonunchilik kiritilayotgan o'zgartirishni qo'llab-quvvatlagan holda piyodalarga nisbatan belgilangan jazo chorasi kuchaytirilishiga qarshi ekanini bildirdi.

"Skuter, individual harakatlanish vositalarining harakati tartibga solinayotgani judayam to'g'ri. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ushbu dispozitsiyaga nisbatan ilk marta sanksiya qo'llanilishiga qaramay, birdaniga kuchaytirilgan jazo chorasi belgilanishi, qolaversa, bu norma piyodalarga ham taalluqli bo'layotganiga qarshiman. Loyihani ikkinchi o'qishga olib chiqish jarayonida ushbu normani amaldagi tahrirga qaytarish kerak", dedi deputat.

"Adolat" SDP

Shu kunlarda Toshkent shahridagi Abdulla Qodiriy SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI nomidagi "Do'stlik" (Bobur nomidagi) bog'larining rekonstruksiya qilinishi haqidagi xabarlar ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari va jamoatchilikning turli muhokamalariga sabab bo'lmoqda. Mazkur masala yuzasidan "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi Muhammadjon Valiyev ham o'z fikrini bildirdi.

"Poytaxtimiz ob-havosidagi o'zgarishlar shaharda ko'kalanzorlashtirish ishlari jadal amalga oshirilishi zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Bu bog'lar va ulardagi daraxtlar ham aholining toza havodan nafas olish imkoniyatini kengaytiradi. O'ylaymanki, shahar hokimligi istirohat bog'larini investorlarga ijaraga berganida birorta daraxt yoki o'simlikka ziyon yetkazilmasligi bo'yicha qat'iy shart qo'ya oladi. O'z navbatida, jamoatchilik ham bog'lardagi o'zgarishlar haqida xabardor etilishi shart", dedi deputat.

O'zXDP

Quyi palataning yaqinda bo'lib o'tgan majlisida nogironligi bo'lgan hamyurtlarimizning huquqlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan qonun loyihasi qizg'in muhokama etilib qabul qilindi va Senatga yuborildi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Qizilgul Qosimova ushbu hujjat bilan kiritilayotgan o'zgartirishlar partiya elektorati manfaatlariga to'la mosligini ma'lum qildi.

"Qonun bilan nogironligi bo'lgan shaxslarning odil siddan foydalanish huquqi hamda siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etishga oid huquqlari kafolatlanayotgani e'tiborimni tortdi. Qolaversa, davlatga nogironligi bor insonlar huquqlarini ta'minlashga oid muhim majburiyatlar yuklanayotgani dasturiy maqsadlarimizga mos keladi. O'ylaymanki, biz, deputatlar parlamentda qabul qilayotgan qonunlarimiz orqali aholining alohida yordamga muhtoj qatlami uchun yaratiladigan imkoniyatlarni yanada kengaytirishga hissa qo'sha olamiz", dedi deputat.

O'zbekiston Ekologik partiyasi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida ko'mir mahsulotlarini talon-toroj qilganlik uchun javobgarlik belgilanishini nazarda tutuvchi qonun loyihasi qizg'in ko'rib chiqildi. Muhokama chog'ida fraksiya a'zosi Leyli Seitova bu borada uchrab turgan og'riqli masalaga yechim izlash lozimligiga e'tibor qaratdi.

"Nazarimda, aholiga tarqatilayotgan ko'mirga boshqa mahsulotlarni aralashtirish uchun ham javobgarlik belgilash vaqti keladi. Zotan, joylarda aholi bilan bo'lib o'tayotgan uchrashuvlarda ayrim murojaatchilardan ushbu mazmundagi shikoyat va takliflar kelib turadi", dedi deputat.



O'zbekiston va Xitoy:

QAYTA BOG'LANGAN TARIXIY RISHTALAR

Xitoyning O'zbekiston bilan aloqalari uzoq tarixiy ildizlarga ega. Ushbu mamlakat va Markaziy Osiyo xalqlari ko'p asrlar davomida Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi va gullab-yashnashiga birgalikda hissa qo'shib, sivilizatsiyalarning almashinuviga salmoqli hissa qo'shgan.

Bugun biz Yaqin Sharqdagi qarama-qarshiliklar mintaqada hamda xalqaro vaziyatga chuqur ta'sir ko'rsatayotganiga va asr o'zgarishlari tezlashayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Mana shunday chalkashliklar fonida O'zbekiston hamda Xitoy birdamlik va hamkorlikka, mushtarak taqdirga urg'u berayotgani e'tiborga molik. Aytish mumkin, Pekin hamda Toshkent o'rtasidagi hamkorlik xalqaro munosabatlarning adolatlari va oqilona yo'nalishda rivojlanishiga yordam beradi, bu esa mintaqada dunyoda ijobiy energiya yaratadi.



yo'l" bo'yidagi davlatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorligi ham miqdor, ham sifat jihatdan rivojlanib bormoqda. Savdo aylanmasi yiliga o'rtacha 8 foizga oshayotir. Transchegaraviy elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, "yashil" va kam uglerodli texnologiyalar kabi biznesni tashkil etishning yangi shakllari jadal rivojlanmoqda. Investitsiyalar va savdoni liberallashtirish hamda yengillashtirish darajasi muttasil oshib borayotir. Moliyaviy hamkorlik sohaslarida Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, "Ipak yo'li" jamg'armasi kabi sarmoyaviy va moliyaviy platformalar yaratildi. So'nggi o'n yil ichida tashabbus doirasida 1 trillion AQSh dollariga yaqin sarmoya jalb etildi, 3 mingdan ortiq hamkorlik loyihalari shakllantirildi. Va "Bir makon, bir yo'l" bo'yida joylashgan mamlakatlar uchun 420 ming ish o'rni yaratildi. Tashabbus doirasida hamkorlikdagi

tashish samaradorligi ta'minlanmoqda. "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi tayfali Markaziy Osiyo davlatlari Sharqda dengizga qulay va samarali chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi. Xitoyning Lyanyungan porti orqali O'zbekistondan Yaponiya, Janubiy Koreya va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga tovar yetkazib berish odatiy holga aylandi. Ma'lumki, Xitoy infratuzilma qurilishi sohasida jahon miqyosida obro'-e'tiborga ega va O'zbekistonning yo'l infratuzilmasini yangidan qurish va reabilitatsiya qilishga, suv quvurlari, elektr simlarini yangilashga, ayniqsa, avtomobil yo'llari, tezyurar temir yo'llarni qurish, modernizatsiyalashga katta hissa qo'shishga tayyor ekanini bildirib keladi. To'rtinchidan, hamkorlik yo'nalishlari muttasil kengaymoqda. "Yashil" rivojlanish, zamonaviy qishloq xo'jaligi va kambag'allikni qisqartirish kabi yangi yo'nalishlarda jadal hamkorlik

hamkorlikning ijobiy dinamikasiga ega. Xitoyning tomchilatib sug'orish va boshqa suv tejoychi texnologiyalari yurtimiz hududlarida keng tarqalgan. Har ikki tomon sho'rlangan yerlarni boshqarish, paxta, sholi, g'alla va boshqa ekinlar yetishtirishda yaqin hamkor, bu O'zbekistonda yaxshi ekologik va iqtisodiy foyda keltiradi. Yanging yuqori texnologiyali qishloq xo'jaligi sanoati o'rgazmali zonasi bilan qo'shma ilmiy loyihalar va qishloq xo'jaligi texnologiyalariga o'qitish borasida yaxshi aloqa o'rnatilgan. Bundan tashqari, Xitoyning ilmiy-tadqiqot muassasalari Orol dengizi atrof-muhitini yaxshilash loyihalarida faol ishtirok etmoqda. Kelajakda ikkala tomon ham suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari, "aqli" issiqxonalar barpo etish, sho'rlangan yerlarni boshqarish va ekin yetishtirish sohaslarida hamkorlikni chuqurlashtirishdan manfaatdor.

Kambag'allikni qisqartirish ikki mamlakat hamkorligida muhim o'rin tutadi. Xitoy o'zining "Global taraqqiyot tashabbusi" orqali kambag'allikni kamaytirishni sakkizta ustuvor yo'nalish ro'yxatida birinchi o'ringa qo'ydi va asosiy e'tiborni sanoatni rivojlantirish, infratuzilmani jadalashtirish, ta'lim va kasb-hunar ta'limini kengaytirishga qaratdi.

Shu o'rinda bir mahalla misolida Xitoy tajribasiga e'tibor qaratsak. Xaynan muzofotining Dunfan shahridagi Lemey mahallasida 118 ta uy xo'jaligida 600 ga yaqin kishilar istiqomat qiladi. Lemey qishlog'i yaqin paytlargacha eng kambag'al aholi yashash punkti sanalgan.

Xaynan universiteti kambag'allikdan qutqarishga ko'maklashish maqsadida bu yerda oxideya gullari yetishtirishni rivojlantirishni faol qo'llab-quvvatladi. Oxideyaning yuqori haroratga chidamli navlarining yaratilishi tufayli uni tarqatish, sotish, ekskursiya va amaliyotni o'zida jamlagan kompleks bazaga asos solindi. Bundan tashqari, "partiya yacheykalari + universitetlar + kooperativlar + fermerlar" tizimi orqali kambag'allikka qarshi kurashishning yangi yo'li o'rganildi. So'nggi besh yilda Lemey mahallasining oxideya bazasida savdoning jami hajmi 10 million yuandandan oshib ketdi. E'tiborsiz, maydoni 7506 kvadrat metr bo'lgan mahallada oxideyadan tashqari, qalampir, kokos, mango, banan, yong'og', "ajdaho olivi" kabi mahsulotlar ham yetishtiriladi.

Oxideya ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, aholing mehnatkashligi, uddaburonligi evaziga Lemey mahallasi huvillagan, abgor qishloqdan restoranlar faoliyat ko'rsatadigan, biznesga o'rgatadigan, hunarmandchilik va kulolchilik sir-asrorini mujassam etgan ustaxonalar yo'lga qo'yilgan maskanaga aylandi. Ahamiyatli, ustaxonaning o'zida hunarmandchilik va kulolchilik san'atini onlayn namoyish qiladigan veb-translyatsiya ham ishga tushirildi. Eksperimental qishloq xo'jaligi bazasi ham tashkil etildi, innovatsion ishlab chiqarish texnologiyalari joriy qilindi. Qo'lida to'qilayotgan gilamchalar, sochiq va sumkalar elektron tijorat orqali sotilmoqda.

Xulosa shuki, Xitoyning "yashil" iqtisodiyotga o'tish, muqobil energiya manbalarini rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va umuman, iqtisodiyotning barcha sohasida tajribasi davlat. Demak, bu tajribalarni mamlakatimizda qo'llash, Xitoydek qadrali davlat bilan qo'shma loyihalarni birgalikda amalga oshirish manfaatlarimizga to'la mos.

Mo'jizalar qishloqdan boshlanadi

Xitoy va O'zbekiston zamonaviy qishloq xo'jaligi sohasida ham

Xohruj MAJIDOV,
Xitoyning Changshu Texnologiya instituti
biznes fakulteti dotsenti, PhD
xalqaro ofis koordinatori.

Xolis nazar

Umumiy taraqqiyot va farovonlik uchun

O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro manfaatli hamkorlik o'rinishida izchil rivojlanib borayotir. O'z navbatida, bu mintaqadagi umumiy muhitga ham ijobiy turki bermoqda. Shu bois ham Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasida mushtarak taqdirga ega bo'lgan yaqin hamjamiyat yaratish uchun asoslar bor va shart-sharoit mavjud.

Markaziy Osiyo "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi ilk bor e'lon qilingan va hamkorlikni mustahkamlash yo'lidagi ustuvor mintaqa hisoblanadi. So'nggi yillarda XRR Raisi Si Szinpin va Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilarining strategik rahbarligida tomonlar birgalikda butun mintaqada aholisi manfaatli uchun bir qator yirik loyihalarni amalga oshirdi. Avvalo, xitoy — qozoq "Xorgos" chegaraboyi hamkorligining xalqaro markazi va Lyanyungan logistikasi bazasi qurilishining yakunlanishi Markaziy Osiyo davlatlarining Tinch okeaniga chiqish imkoniyatini yaratdi.

Ikkinchidan, Xitoy kompaniyalari tomonidan qurilgan Angren — Pop temir yo'l tunneli Markaziy Osiyodagi eng uzun tunnel bo'lib, mahalliy aholini tog'larni kesib yoki qo'shni davlatlar orqali aylanma yo'lni bosib o'tishdan qutqardi.

Uchinchidan, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston avtomobil yo'li mintaqaning tog'li hududi orqali to'siqsiz o'tuvchi muhim xalqaro transport yo'nalishiga aylandi. Xitoy — Yevropa ekspress poyezdlarining beshdan to'rt qismi Markaziy Osiyo orqali o'tadi.

To'rtinchidan, O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Birgina 2023-yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 14 milliard dollardan oshdi. O'zbekiston yetakchisining shu yil fevral oyidagi ushbu mamlakatga tashrifini va imzolangan hujjatlar to'plami bu ko'rsatkichni yanada oshirish imkonini yaratadi.

Xitoy Yevroosiyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston va butun mintaqada barqarorlik hamda xavfsizlik ta'minlanishi tarafdori. Pekin nazarida Markaziy Osiyo barqaror bo'lsa, dunyo barqaror! Dunyo esa barqaror Markaziy Osiyoga muhtoj. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatlarimiz global xavfsizlik tashabbusini amalga oshirish uchun birgalikda harakat qilayotir. Bundan tashqari, Xitoy Markaziy Osiyo davlatlarining suvereniteti, xavfsizligi, mustaqilligi va hududiy yaxlitligi ta'minlanishi, tanlagan taraqqiyot yo'li va tinchlik, yaxshi qo'shnihilik va osoyishtalik yo'lidagi sa'y-harakatlari hurmat qilinishi kerakligi g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi.

Ishonch va hamjihatlik

yangi davr talabi

Barchamizga yaxshi ayonki, Xitoyning so'nggi o'n yilda keng ko'lami islohotlari bilan ajralib turishi umume'tirof etilgan yutuqlarga sabab bo'lmoqda. Bu yutuqlar zamirida modernizatsiya yo'lida dadil qadam qo'yayotgan Xitoy xalqining bunyodkorlik kuchi, mehnatsevarligi va iste'dodi yotadi.

O'zbekiston va Xitoy mintaqaviy hamda xalqaro hamkorlikni ta'minlashga mushtarak intilish, global xavf-xatarlarni yengib o'tishda, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda BMTning markaziy roliga va ko'p tomonlama hamkorlikka sadoqat birlashtirib turadi.

O'zbekiston Xitoyning global miqyosda jipslashtiruvchi kuchga aylinishiga qaratilgan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini ro'yobga chiqarish doirasidagi turli dasturlarda faol ishtirok etmoqda. O'zbekiston uchun bu shunchaki infratuzilmaviy loyiha emas, balki mintaqalarning transport jihatdan yiroqligini yengib o'tuvchi global o'zaro bog'liqlikning muhim bo'g'inidir. 2013-yilda XRR Raisi Si Szinpinning aynan Markaziy Osiyoda, aniqrog'i, Qozog'istonda "Ipak yo'li" iqtisodiy kamari" va "Dengiz ipak yo'li"ni barpo etish, shu orqali qadimgi Buyuk Ipak yo'lini yangi mazmun bilan boyitishga qaratilgan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini ilgari surgani ham bejiz emas. Bugungi kunga qadar 152 ta davlat va 32 ta xalqaro tashkilot Xitoy bilan "Bir makon, bir yo'l" loyihasini birgalikda amalga oshirish bo'yicha 200 dan ko'p hujjatlar imzolagan va bu tashabbus dunyo davlatlarining to'rtinchi uch qismidan ko'prog'ini qamrab oldi. So'nggi o'n yil ichida mazkur global tashabbus xalqaro global iqtisodiy tanazzul, COVID-19 pandemiyasi o'tiqinlari va yirik davlatlar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi kabi qiyinchiliklarga dosh berdi.

Dunyoning yirik iqtisodiyotlaridan biri sifatida Xitoy rivojlanayotgan mamlakatlarning dolzarb ehtiyojlarini yaxshi tushunadi. O'n yildan ortiq vaqt davomida "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi samarali natijalarga erishdi va bu yo'l bo'ylab joylashgan mamlakatlar xalqiga sezilarli foyda keltirdi. Transport va kommunikatsiyalar o'zaro bog'liqligi tuzilmasi, asosan, "Oltita yo'lak, oltita yo'nalish, ko'plab mamlakatlardagi ko'plab portlar" formulasi bo'yicha shakllangan bo'lib, bu asosiy xalqaro transport kanallarini sezilarli darajada kengaytiradi. Xitoy — Yevropa temir yo'l ekspresining jo'natmalari soni yil sayin ortib bormoqda, u hadiqiy "temir tuya karvoni"ga aylandi. To'siqsiz savdoga kelsak, Xitoyning "Bir makon, bir

“O'zbekiston Xitoyning global miqyosda jipslashtiruvchi kuchga aylanib bo'lgan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini ro'yobga chiqarish doirasidagi turli dasturlarda faol ishtirok etmoqda. O'zbekiston uchun bu shunchaki infratuzilmaviy loyiha emas, balki mintaqalarning transport jihatdan yiroqligini yengib o'tuvchi global o'zaro bog'liqlikning muhim bo'g'inidir.”

qurilish 40 millionga yaqin odamlarni qashshoqlikdan chiqarishga yordam berdi.

«Bir makon, bir yo'l»dan — yagona maqsad sari!

O'zbekiston ham "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida faol sherik. O'tgan o'n yil davomida ikki davlat mazkur tashabbus doirasidagi hamkorlik orqali salmoqli natijalarga erishdi. Va ularni quyidagi yo'nalishlarda umumlashtirish mumkin. Birinchidan, siyosiy muloqot chuqurlashtirishda davom etmoqda. Uning doirasida tomonlar "Xitoy — Markaziy Osiyo" mexanizmini takomillashtirish, turli sohalarda muloqotlar olib borish va ikki tomonlama munosabatlarni doimiy ravishda yangi mazmun bilan to'ldirish bo'yicha birgalikda sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda.

Ikkinchidan, savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik mustahkamlanmoqda. Xitoy O'zbekistonning eng yirik savdo sherigi va asosiy sarmoya manbai hisoblanadi. 2017-yildan beri Xitoyning O'zbekistondagi jami investitsiyalari hajmi 5 barobar ko'payib, 14 milliard AQSh dollariga yetdi. Infratuzilma, kimyo sanoati, energetika, suv xo'jaligi, transport, kommunikatsiya kabi sohalarda ko'plab qo'shma loyihalar amalga oshirildi. Bu loyihalar O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga, xalq turmush darajasini yuksaltirishga ijobiy hissa qo'shmoqda.

Uchinchidan, transport aloqasi darajasi oshib bormoqda. Ayni paytda O'zbekiston hududidan o'tuvchi "Xitoy — Markaziy Osiyo" gaz quvuri barqaror ishlamoqda, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston avtomobil yo'li hamda Xitoy — Qozog'iston — O'zbekiston temir yo'li bo'ylab transchegaraviy

dinamikasi kuzatilmog'ida. Xitoyning "Shandong Heavy Industry" kompaniyasi "UzAuto Motors" bilan birgalikda "UZ TRUCK AND BUS MOTORS" qo'shma korxonasini tashkil etdi va o'tgan yili Samarqandda uch minginchi yuk avtomobili ishlab chiqarildi. Prezidentimizning XXRga tashrif davomida "BYD" brendining Jizzax viloyatida avtomobil ishlab chiqarishiga start berildi. Bu kompaniya ishlab chiqarayotgan elektromobilning atzalligi shundaki, u elektr quvvatida yuradi. Bu, o'z navbatida, atrof-muhitga ham zarar yetkazmaydi.

Beshinchidan, gumanitar almashinuvlar sur'ati oshdi. Ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi aloqalar muttazam kengayib bormoqda. Ta'lim, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, sog'liqni saqlash va boshqa sohalardagi hamkorlik shular jumlasidan. Turli madaniy tadbirlar, seminarlar tashkil etilmog'ida. Samarqand, Buxoro va Xivanning boy tarixiy, madaniy va sayohatlik resurslari xitoylik sayyohlarni tobora ko'proq o'ziga jalb etyapti. Ya'ni bu shuni anglatadiki, 32 yildirki, Xitoy va O'zbekiston bir-biriga hurmat bilan yaxshi qo'shnihilik va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirib, hamjihatlikda taraqqiyot sari ildam odamlamoqda.

Mo'jizalar qishloqdan boshlanadi

Xitoy va O'zbekiston zamonaviy qishloq xo'jaligi sohasida ham

Xulosa shuki, Xitoyning "yashil" iqtisodiyotga o'tish, muqobil energiya manbalarini rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va umuman, iqtisodiyotning barcha sohasida tajribasi davlat. Demak, bu tajribalarni mamlakatimizda qo'llash, Xitoydek qadrali davlat bilan qo'shma loyihalarni birgalikda amalga oshirish manfaatlarimizga to'la mos.

Xohruj MAJIDOV,
Xitoyning Changshu Texnologiya instituti
biznes fakulteti dotsenti, PhD
xalqaro ofis koordinatori.

Amin MAALUF:

JAHON HAMJAMIYATI O'ZBEKISTON HAQIDA KO'PROQ BILISHI KERAK

O'zbekistonning YUNESKO'dagi doimiy vakili Kamol Muxtorov Fransiya akademiyasi doimiy kotibi Amin Maaluf bilan uchrashdi.

Amin Maaluf — asli kelib chiqishi livanlik bo'lgan zamonaviy fransuz adabiyotining yorqin namoyandasi. Uning asarlari dunyoning ko'plab mamlakatlarida ma'lumu mashhur va 27 tilga tarjima qilingan. Adibga shuhrat keltirgan asarlar qatorida 1988-yilda nashr etilgan "Samarqand" romani ham bor. Ushbu tarixiy fantastik janrdagi asar qator xalqaro mukofotlar bilan taqdirlangan. Shuningdek, mazkur roman O'zbekiston hamda uning boy tarixiy-madaniy merosini yevropalik kitobxonlarga yetkazishda muhim o'rin tutdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

E'tirof

Ma'lumot uchun aytish joizki, Fransiya akademiyasi 1635-yilda Fransiya instituti tarkibida tashkil etilgan ilmiy muassasa hisoblanadi. Uning maqsadi fransuz tili va adabiyotini o'rganish, fransuz tilining lingvistik va adabiy me'yorlarini tartibga solishdan iborat. Doimiy kotib Fransiya akademiyasining umrbod beriladigan oliy martabasidir. Uchrashuvda Amin Maalufga mamlakatimizda ilm-fan, ta'lim va madaniyatning zamonaviy taraqqiyoti, xususan, YUNESKO bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga qaratilayotgan yuksak e'tibor haqida ma'lumot berildi.

2025-yilda Samarqand shahrida YUNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining o'tkazilishi O'zbekistonning mazkur tashkilot bilan hamkorligi jadal rivojlanib borayotganidan yorqin dalolat ekani ta'kidlandi. Tadbirga Amin Maaluf shaxsan qatnashish va ma'ruza qilish uchun taklif etildi. O'z navbatida, fransuz adibi O'zbekiston



tomoni YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasiga Samarqand mezbonlik qilishi bilan samimiy tabriklandi.

— YUNESKO bosh tadbirining Samarqandda

o'tkazilishi O'zbekiston uchun katta yutuqdir. Ishonchim komilki, insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, sivilizatsiyalar chorhasida joylashgan boqiy Samarqand shahrida ushbu tadbirning tashkil etilishi O'zbekiston uchun ham, YUNESKO va barcha a'zo davlatlar uchun ham muhim tarixiy voqeaga aylanishi shubhasiz, — dedi u.

Samarqand shahri mening hayotimda alohida o'rin tutadi. "Samarqand" romanini yozish chog'ida bu ko'hna kentga ilk tashrifim hayotim va ijodimda o'chmas iz qoldirdi. O'zbekiston boy tarix va madaniy merosiga ega

mamlakat sifatida dunyoning turli burchaklaridan sayyohlarni o'ziga doimo maftun etib keladi. Tarixiy obidalari va o'ziga xosligi jihatdan Buxoroni Ispaniyaning Granadasi bilan, Samarqandni Kordova bilan solishtirish mumkin. Jahon hamjamiyati O'zbekiston haqida ko'proq bilishga loyiq va mamlakatimiz haqida gapirish menga katta mamnuniyat bag'ishlaydi.

Fransiya akademiyasi doimiy kotibi 2025-yilda Samarqandda o'tkaziladigan YUNESKO Bosh konferensiyasida qatnashish taklifi uchun minnatdorlik bildirgan, ushbu tadbirda o'z mamlakati ilmiy va madaniy doira vakillari bilan birgalikda ishtirok etishdan mamnun bo'lishini ta'kidladi.

“Dunyo” AA.
Parij



“TikTok”ka qarshi qonun loyihasi ma'qullandi

Prezident Jo Bayden Amerika Qo'shma Shtatlari hududida Xitoyning "TikTok" ilovasi faoliyatini cheklashga oid qonun loyihasini imzoladi. Avvalroq bu qonun loyihasini AQSh Kongressining Vakillar palatasi va Senati ma'qullagan edi.

Endi agar Xitoyning "ByteDance" shirkati "TikTok"ni boshqa shaxsga sotmasa, ilovaning AQShdagi "Apple" va "Google" shirkatlari do'konlaridagi sotuvi to'xtatilishi lozim.

Cheklov tarafdorlarining urg'ulashicha, "TikTok" AQSh milliy xavfsizligi uchun tahdidir. Ularga ko'ra, Xitoy hukumati maxsus xizmatlari to'g'risidagi o'z qonunlarini "ByteDance" shirkatiga qarshi ishlatib, uni "TikTok" ilovasidan foydalanayotgan AQSh fuqarolariga oid shaxsiy ma'lumotlarni XRR rasmiylariga topshirishga majbur qilishi mumkin.

Hozirgacha ko'plab manbalar "ByteDance" vakillari Xitoy hukumati bilan aloqasi borligi hamda shirkatdan siyosiy senzura ko'llanilishida foydalanilayotgani haqida ma'lum qilgan. Shuningdek, "ByteDance" bir necha bor AQSh va boshqa mamlakatlarda tergov mavzuiga aylangan.

Qonunga ko'ra, "ByteDance" shirkatiga ilovani dotishi uchun to'qqiz oy muhlat beriladi. Agar bu vaqt ichida "TikTok" sotilmasa, Xitoy ilovasi AQShdagi "Apple" va "Google" do'konlarida sotuvdan olib tashlanadi.

Qochoqlarni Markaziy Afrikaga joylashtirmoqchi

Buyuk Britaniya parlamentining yuqori palatasi hukumat bosimi ostida qirolik hududini noqonuniy kesib o'tgan muhojirlarni Afrikaning Ruanda davlatiga chiqarib yuborish haqidagi qonun loyihasini qabul qildi. Loyiha 23-aprel kuni Lordlar palatasi tomonidan ma'qullandi.

Parlamentning har ikki palatasida qabul qilingan qonun loyihasini Britaniya qiroli Charlz III imzolaganidan keyin kuchga kiradi. Unga ko'ra, Buyuk Britaniyaga noqonuniy kirgan muhojirlar Ruandaga tijorat reyslari orqali jo'natiladi, ular o'sha yerda boshpana so'rashi mumkin.

Hukumat bu choralar bilan yiliga o'n minglab noqonuniy muhojirlar oqimiga chek qo'ymoqchi va odam savdosi bilan shug'ullanuvchi kontrabandachilar biznesini yo'q qilmoqchi. Noqonuniy muhojirlarni Ruandaga jo'natishni

2022-yilda mamlakatning o'sha paytdagi bosh vaziri Boris Jonson taklif qilgan edi. Bu bilan u La-Mansh bo'g'ozini orqali noqonuniy muhojirlarni tashish bo'yicha biznes modelini yo'q qilishni ko'zlagan.

Shu bilan birga, Buyuk Britaniya va Ruanda migratsiya bo'yicha hamkorlik to'g'risida shartnoma imzoladi va London ushbu mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga 120 million funt sterling sarmoya kiritishga va noqonuniy muhojirlar Afrika zaminida qolsa, ularning integratsiyasini moliylashtirishga va'da berdi.

Falastinda ommaviy qabrlar topildi

BMTning inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Volker Turk G'azodagi al-Nosir va al-Shifo kasalxonalarining vayron bo'lganidan hamda ommaviy qabrlar haqidagi xabarlardan dahshatga tushganini bildirdi.

Gap shundaki, Isroil askarlari Xon-Yunusdagi kasalxonani tark etgach, G'azo mutasaddilari ushbu hududga ommaviy qabrlarga dach kelganini ma'lum qildi. Isroil maxsus kuchlari al-Shifoda ham amaliyot olib borgan.

BMTning inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi matbuot kotibi Ravina Shamdasaning aytishicha, tashkilot vakillari ayni damda ushbu ma'lumotlarni tekshirmoqda. Al-Nosir kasalxonasi hududidagi qabrlarda 283 nafar, al-

Shifoda esa 30 nafar odamning jasadlari topilgan. Ular chiqindilari ostiga ko'milgani, qurbonlar orasida ayollar, qariyalarning borligi aytilmoqda. "Al-Nosir kasalxonasida topilgan 283 jasaddan 42 nafarining shaxsi aniqlandi. Ba'zilari ko'llari bog'langan, kiyim-boshsiz holatda ko'milgan", deydi R. Shamdasani. Isroil askarlari al-Shifo kasalxonasidagi amaliyot paytida 200 nafar falastinlikni o'ldirganini tan olgan.

Tinchlik sari yana bir qadam

Armaniston va Ozarbayjon rasmiylari ilk bor o'rtadagi chegaraning bir qismi qanday o'tishini kelishib oldilar. Tomonlar to'rtta aholi punkti o'rtasida chegara chizig'ining alohida uchastkalarini o'tkazish to'g'risida oldindan kelishib oldi va bu uchastkalar sobiq ittifoq parchalangan paytdagi chegaraga moslashtirishga erishildi.

Ushbu kelishuv natijasida rasmiy Yerevan o'tgan asrning 90-yillaridan beri Armaniston nazoratidagi Tavush viloyatida joylashgan to'rtta qishloqni Ozarbayjon nazoratiga o'tkazadi.

Bu bilan chegarani delimitatsiya qilish va xavfsizlik bilan bog'liq xavf-xatarlarning kamayishiga erishiladi. Abduvali SOYIBNAZAROV ("Xalq so'zi") taysyorladi.

BARKAMOL AVLOD - KELAJAK TAYANCHI

Xalqaro hamjamiyat har qanday mamlakat taraqqiyotida sog'lom va barkamol, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yoshlar o'ta muhim o'rin tutishini alohida e'tirof etadi.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, bugun Yer yuzi aholisining 2 milliarddan ko'prog'ini yoshlar tashkil etadi. Bu insoniyat tarixida yoshlar sonining eng yuqori ko'rsatkichi hisoblanadi. Va bu yoshlarning qariyb 90 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqomat qiladi.

Ahamiyatli, innovatsion g'oyalar va axborot texnologiyalari asrida yoshlar global muammolar yechimlarini topishda yotaklik kuchga aylandi.

Innovatsiya va g'oyalar drayveri

Bugungi kunda yoshlar faolligi jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi asosiy kuch sifatida har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterish ta'kidlaganidek, tinchlik, faol iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy adolat, bag'rikenglikni ta'minlash — bularning barchasi va yana ko'p narsalar yoshlar imkoniyatlaridan foydalanish bilan bog'liq.

So'nggi yillarda birgina yoshlar masalalariga doir BMT doirasida 10 dan ortiq xalqaro hujjatlar qabul qilindi. BMT Bosh Assambleyasining jahon yoshlariga tegishli Harakat dasturida (1995-yil) yoshlar hayotini yaxshilash borasida milliy harakatlar va xalqaro qo'llab-quvvatlashga oid siyosat asoslari hamda amaliy tavsiyalar belgilandi. Harakat dasturi yoshlar bilan bog'liq 15 ta ustuvor yo'nalishni qamrab olgan bo'lib, ularning har biri amaliy harakatlar bo'yicha aniq takliflarni o'z ichiga olgan.

BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish kun tartibida yoshlar farovonligini ta'minlash, jamiyat hayotidagi ishtiroki va imkoniyatlarini kengaytirish barqaror rivojlanish va dunyoda tinchlikni ta'minlashning o'ta muhim omillari ekani e'lon qilindi. Shu sababli, Barqaror rivojlanish maqsadlarining barcha — 17 maqsadida va ularga erishish yo'lida 169 maqsadga yoshlar manfaatlarini ta'minlash masalalariga alohida o'rin berilgan.

Yoshlar muammolari yechimi to'rt yo'nalishda belgilangan bo'lib, bular bandlikni ta'minlash, o'spirin qizlar holatini yaxshilash, sifatlil ta'lim va ommaviy sport kabildan iborat. Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish jarayonlarida yoshlar ma'lumotlarni yig'ish, ulardan foydalanish, mahalliy hamda milliy tashabbuslarni ilgari surish, monitoring qilish va hisobdor bo'lish, shuningdek, evolyutsion taraqqiyot to'g'risida ma'lumot tayyorlash orqali bevosita ishtirok etadi.

Jahon yoshlarining talab-ehhtiyojlarini qondirish, salohiyatini mustahkamlash va huquqlarini to'laqonli ta'minlash uchun BMTning "Yoshlar 2030" strategiyasi qabul qilingan bo'lib, hujjatda "yoshlar sarmoya kiritilishi lozim bo'lgan o'ta qimmatli va nihoyatda muhim manba hisoblanadi, zero, kiritilgan sarmoyalarda ko'p marotaba o'zini oqlay oladi", deb ta'kidlangan.

Qancha mablag' talab etilsa, shuncha ajratiladi

Bugun O'zbekistonda 30 yoshgacha bo'lgan navqiron avlod aholining 60 foizini tashkil qiladi. Buni respublika uchun o'ziga xos qimmatbaho "demografik dividend" deb atash mumkin.

balansi" bo'yicha 925 ming yigit-qizning bandligini ta'minlash vazifasi ilgari surilgan. Dasturga binoin yoshlarning biznes bilan shug'ullanishiga qo'shimcha imkoniyatlar yaratilib, oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizi ushbu yo'nalishga yo'naltirilishi diqqatga sazovor.

Shuningdek, "Yosh tadbirkor" tanlovlari o'tkazilib, g'oliblar xorijiy davlatlarga malaka oshirishga yuborilishi ham yoshlar uchun yangi imkoniyat va g'amxo'rlik namunasidir. Bundan tashqari, "Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi" loyihasi doirasida bu yil axborot-texnologiyalari sohasida 70 ming yoshni band qilish rejalashtirilgani, qobiliyatli yigit-qizlarni aniqlab, ularni IT-kasblar va xorijiy tillarni o'rganishga ko'maklashish kabi masalalar mutasaddilar uchun vazifa qilib berildi.

Farmonda barcha o'zgarishlarning negizi hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimida ham yangicha tub islohotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qancha mablag' talab etilsa, ajratilayotir. Shu o'rinda aytish kerakki, bugungi kunga kelib mamlakatimizda ta'lim, jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori Davlat budjeti xarajatlari umumiy qiymatining yarmidan ko'prog'ini tashkil etmoqda.

Tabiiyki, har qanday davlat ham bunday katta xarajatlarni ko'tara olmaydi. Ammo qanchalik og'ir bo'lmasin, buning uchun zarur mablag' va resurslar yurtimizda izlab topilmoqda. Prezidentimiz mazkur xarajatlarni kelajak uchun qo'yilgan eng samarali sarmoya deb hisoblab, ta'lim darajasi va



Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Har qanday davlatning rivojlanish darajasi yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor bilan chambarchas bog'liq. Tan olish kerak, bundan 10 — 15 yil avval kasb-hunar kollejlari tahsil olgan yoshlar aslida mavjud bo'lmagan "ish joylari"ga joylashgani haqida uch tomonlama yolg'on shartnomalarni to'ldirish uchun

“Bugun yoshlar ta'lim-tarbiyasiga, uning kelajagi bilan bog'liq masalalarga e'tibor tubdan o'zgardi. Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan "O'zbekiston — 2030" strategiyasining "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi qabul qilindi. Unda yoshlar muammolarini hal etish va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'qitish orqali bandligini ta'minlash bo'yicha ko'plab vazifalar belgilangan.

sarson bo'lar, keyin esa diplomni olar-olmas ish qidirib yaqin va uzoq xarajaga yo'l olar edi. Ayni kuch-quvvatga to'lgan yoshlar noilojlikdan norasmiy qurilishlarda, og'ir sharoitlarda ishlab kun kechirishi barchamizga ayon haqiqat edi.

Bugun yoshlar ta'lim-tarbiyasiga, uning kelajagi bilan bog'liq masalalarga e'tibor tubdan o'zgardi. Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan "O'zbekiston — 2030" strategiyasining "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi qabul qilindi. Unda yoshlar muammolarini hal etish va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'qitish orqali bandligini ta'minlash bo'yicha ko'plab vazifalar belgilangan.

Hozirgi kunda yurtimizda eng iqtidorli yoshlarni bag'riga olgan Prezident maktablari, buyuk mutafakkirlarimiz va el sevgan adiblar nomi bilan ataluvchi ijod maktablarining barchasi yoshlarga sifatlil ta'lim berish va kasbga yo'naltirish, ularning intilishlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yuksak e'tiborning amaldagi isbotidir.

Birgina joriy yilning o'zida "Yoshlar

sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil ekanini ta'kidlamog'unda.

Farmonning yana bir e'tiborga molik jihati, 2024-yil 1-mayga qadar adashgan yoshlarni jamiyatga integratsiya qilish, ularning hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish maqsadida Yoshlar ittifoqi kafilligi asosida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoshlarni probatsiya hisobidan chiqarish amaliyoti joriy etiladi. Ularni profilaktik hisobga olish asoslari keskin qisqartiriladi. Bu kabi ulug'vor maqsadlar yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlashga xizmat qiladi.

Yurt kelajagi bunyodkorlari

Yosh avlod vakillari o'z talab-ehhtiyojlarini qondiradigan, huquqlarini himoya qiladigan, o'zlar uchun keladigan muammolar yechimini ta'minlay oladigan keng qamrovli strategiya va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish huquqiga ega bo'lishi lozim. Shu jihatdan, O'zbekistonning bu sohadagi tajribasi

Xalq so'zi Narodnoye slovo tanloviga

xalqaro hamjamiyat uchun qiziqish uyg'otmoqda va u dunyoda keng o'rganilmoqda.

Keyingi yigirma yil ichida yoshlar O'zbekiston tarixidagi eng katta ishihi kuchiga aylanadi. Demak, yoshlarni rivojlantirishga sarmoya to'g'ri sarflansa, aynan shu yigit-qizlar O'zbekistonni yangi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga olib chiqadigan avlod bo'lib shakllanadi.

Xalqaro e'tiroflarga ko'ra, yangi O'zbekiston yoshlari jamiyatni o'zgartirishning faol subyektiga va modernizatsiya jarayonlari uchun muhim manba, shuningdek, iqtisodiy o'sish, avlodlar farovonligini ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi va bu doimo diqqat markazida. Birgina so'nggi uch yil ichida sohaga oid uchta qonun, Prezidentning o'nlab farmonlari, qarorlari va hukumat hujjatlari qabul qilindi.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" qabul qilindi. Konsepsiyada hal etishga qaratilgan asosiy vazifalar qatoridan jismonan sog'lom, ma'nan rivojlangan yigit-qizlarni tarbiyalash, ularning ilmiy va ijodiy salohiyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilish, yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy islohotlarga faol jalb etish masalalari o'rin olgan. Yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholashning yagona mezonlari, yoshlar siyosatini baholashning milliy ko'rsatkichi ishlab chiqilmoqda.

Shu bilan birga, yoshlar bandligini ta'minlash, munosib daromad olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga eng muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O'zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

O'zbekistonda jamiyatning faol qatлами sifatida e'tirof etiluvchi yoshlarga yur ravnagini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaraladi. Yuksak bilimlil, zamonaviy fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib boryapti. Bu borada qabul qilingan davlat dasturi yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash borasida boshlangan ishlarni yangi bosqichga olib chiqishda dasturlamal bo'ladi.

Muhabbat HAKIMOVA, TDIUning Innovatsion ta'lim kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor.



Boysun sayyohlarni nimasi bilan o'ziga jalb qilmoqda?

Ayniqsa, turizm sohasida xalqaro va milliy tashkilotlar, yirik xorijiy brendlar va kompaniyalar bilan hamkorlik kengaytirilgan, turizm xizmati ko'rsatishning ilg'or jahon standartlari joriy etilgani soha ravnaqiga xizmat qilmoqda. Bugun mamlakatimizning turizm uchun xavfsiz hudud sifatidagi imiji mustahkamlandi.

Darhaqiqat, turizm iqtisodiyotimizning muhim yo'nalishlaridan biriga, drayveriga aylanib borayotir. Eng muhimi esa O'zbekiston dunyo turizm bozorida salohiyati, imkoniyati eng yuqori davlatlardan biri sanaladi.

Mamlakatimizda dunyo turizm bozorida salohiyati, imkoniyati eng yuqori davrlariga mansub madaniy meros obyektlari, arxeologik yodgorliklar, qadimiy shaharlar, muborak ziyoratgohlar ko'p. Buyuk lpak yo'li chorrahasida joylashgan tabiati esa sayyohlikni rivojlantirishga qulay.

Xususan, janub gavhari — Surxondaryoning turistik salohiyati, jozibadorligi xususida gap ketganda, avvalo, Boysun tumani ko'z oldimizda gavdalanadi. O'ziga xos tabiatiga ega Boysunda bugun sayyohlar oqimi yil sayin ortmoqda.

Boysun tumani purviqor tog' tizmalari, musaffo ob-havosi, ayniqsa, tubsiz g'ordan otilib chiquvchi tabiiy mineralarga boy Xo'jamayxona bulog'i bilan shuhrat qozongan. Shifobaxsh suv yurakqon tomir, gepatit, buyrak va o't qopi toshlari, oshqozon yarasi kasalliklarida foydali. Buloqdan soniyasiga uch kub suv chiqadi. G'or tubi shunchalar chuqurki, shu kungacha uni aniqlashning imkonil bo'lmagan.

Yapon olimlari bu yerda tadqiqot o'tkazib, uning Osiyo qit'asidagi juda ziil, tabiiy filtrlangan, shifobaxsh suv ekani, inson organizmiga foydali bo'lgan temir va oltin moddalari mavjudligini aniqlagan. Mo'jizalarga boy Xo'jamayxona atrofi mahalliy ziyoratchilar va xorijlik sayyohlar bilan hamma vaqt gavjum.

Yaqinda Xo'jamayxonada bir guruh xorijlik sayyohlarni uchratib, ularning Boysun haqidagi taassurotlari bilan qiziqdik.

Germaniyaning Myunxen shahridanman, kasbim duradgor, — deydi o'zini Martin Lotto deb tanishtirgan sayyoh. — Surxondaryoda ilk bor 2002-yilda bo'lganman. Aynan tog'li Boysun tumanining Darband mahallasiga kelganimda bu yerdagi sharoitlar uncha yaxshi emas edi. Yurtingizda asrga tatigulik bunyodkorlik ishlari amalga oshirilganining guvohi bo'lib turibman. Turistik infratuzilma

ham ancha rivojlangan. Xo'jamayxona bulog'i atrofida sayyohlar uchun barcha sharoit yaratilgan — obodonlashtirilgan, yangi obyektlar qurilgan. Dunyoning ko'p mamlillarida bo'lganman, ammo Boysunning tabiati o'ziga xosligi meni hayratga soladi.

Haqiqatan, purviqor va osmono'par Hisor tog' tizmasi tarkibidagi Boysuntog' manzaralari sayyohlarda hamisha katta qiziqish uyg'otib kelgan. Ayniqsa, sayyoramizdagi eng chuqur g'orlardan biri deya aytilayotgan, Boysuntog' tizmasida joylashgan, uzunligi 2 651 metrni tashkil etadigan "Qora yulduz" g'ori, qadimiy manzilgohlardan biri bo'lgan Tangisardara sayyohlarning hayratiga sabab bo'lib kelayotir.

Sayyohlar Temir darvoqa mahallasi hududidagi qadimgi suv tegirmonida un tayyorlash hamda tandirda lalmi bug'doyning tegirmonidan non pishirish jarayonlarini bevosita

Darvoqe, joriy yilning 1 — 7-may kunlari xushmanzara Boysun tumanida "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali bo'lib o'tadi. Unda nafaqat mamlakatimiz vakillari, balki sayyoramizning ko'plab davlatlaridan kelgan mehmonlar o'zlarining folklor san'ati va noyob an'analarni keng namoyish etadi. Shuningdek, festival doirasida milliy sport o'yinlari, turli tomoshalar, konsert dasturlari ham namoyish etiladi. Xullas, "Boysun bahori" mahalliy va xorijlik sayyohlar uchun ajoyib tuha hozirlamoqda.

Farhod ESONOV ("Xalq so'zi").

SHAHARISABZ — XALQARO FESTIVAL MEZBONI

O'zbekistonda turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda Shahrisabz shahrining boy tarixi va madaniy merosini inobatga olgan holda ushbu shaharga 2024-yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti turizm poytaxti maqomi berilgan edi. Shu munosabat bilan Shahrisabz shahrida xalqaro festival bo'lib o'tadi.

Anjuman

Mazkur nufuzli tadbirda IHT kotibiyati rahbariyati, tashkilotga a'zo davlatlarning turizm idoralari rahbarlari va mutasaddilari, faxriy mehmonlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Ishirokchilar dastlab Shahrisabz shahrining diqqatga sazovor joylari, Oqsaroy maydonida tashkil

etilgan viloyatning boy madaniy merosi, milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi ko'rgazmalar, folklor jamoalarining chiqishlari bilan tanishdi.

Tadbirlar doirasida IHTga a'zo davlatlar vakillari ishtirokida "International folk" folklor jamoalari festivali, yosh dizaynerlarning "Modest fashion show" tanlovi, "Shahrisabz pazandachilik bellashuvi", xalqaro etnosport o'yinlari



festivali hamda xorijlik va mahalliy yetakchi rassomlar ko'rgazmasi tashkil etildi, — deydi Qashqadaryo viloyati hokimi o'rinbosari Alisher Zokirov. — Shuningdek, festival dasturidan yana bir qator qiziqarli loyihalar ham o'rin oldi.

Festival doirasida tashkilotga a'zo davlatlarning turizm sohasi

rasmilari ishtirokida ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar o'tkazildi. Unda sohani rivojlantirish yo'lida o'zaro tajriba almashish, mavjud muammolarning yechimlari muhokama qilindi.

Shu bilan birga, turizm infratuzilmasini yaxshilash, ekoturizm, etnoturizm va boshqa yo'nalishlarda

imkoniyatlarini ishga solish, turizm tadbirkorligi, shu jumladan, yoshlarning faolligini oshirish va sohadagi yutuqlarni targ'ib qilish borasidagi chora-tadbirlarni jadallashtirish masalalari ko'rib chiqildi.

Jahongir BOYMURODOV ("Xalq so'zi").

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-442. 14 540 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yublab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyotga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mullifiga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahriyot kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir N. Ostonov. Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 20.43 Topshirildi — 23.50 1 2 3 4 5 6